

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д доц К.Боймирзаев

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: [Н.Юсупов](#)

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатида киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



01.00.00

**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES**

**YORUG`LIK NURINING YUQORI SEZGIR BO`YOQ TARKIBLI QUYOSH FOTO
ELEMENTLARIGA TA`SIRINI O`RGANISH.**

To`lqinov Muhammad Ali Erkinjon Og`li
Namangan muhandislik-texnologiya institute
Energetika kafedrası assistenti

Tel: (+99899) 086-76-74. Email: Muhammadali.tolqinov.91@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada quyosh energiyasi va yorug`lik nurining optik kattaliklari - yoritilganlik, ravshanlik, yorug`lik oqimi kabi kattaliklarni yuqori sezgir bo`yoq tarkibli quyosh foto elementlarining ishlash samaradorligiga ta`siri hamda ularning ishlash jarayonida xosil bo`luvchi fototok qiymatlariga bog`liqligini o`rganilgan.

Калит so`zlar: Foto element, Volt - Amper xarakteristikasi, organik bo`yoq, polimer, o`tkazuvchanlik, yarim o`tkazgich, kanal, signal, lyuksometr, to`g`rilagich, elektrolit, yoritilganlik, ravshanlik, xarorat, shaffoflik,

**ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СОЛНЕЧНОГО СВЕТА НА СОЛНЕЧНЫХ
ФОТОЭЛЕМЕНТОВ С ВЫСОКОЧУВСТВИТЕЛЬНОЙ КРАСКОЙ.**

Тўлкинов Муҳаммад Али Эркинжон Ўғли
Наманганский инженерно-технологический институт
Ассистент кафедры энергетики

Tel: (+99899) 086-76-74. Email: Muhammadali.tolqinov.91@mail.ru

Аннотация. В этой статье изучены оптические величины солнечной энергии и света, а также влияние таких величин, как освещенность, световой поток на эффективность высокочувствительных солнечных фотоэлектрических элементов на основе красителей и их фототоку.

Ключевые слова: фотоэлемент, вольт-амперная характеристика, органический краситель, полимер, проводимость, полупроводник, канал, сигнал, люксометр, выпрямитель, электролит, освещенность, яркость, температура, прозрачность

**RESEARCH OF THE INFLUENCE OF SUNLIGHT ON SOLAR PHOTOCELLS WITH HIGH
SENSITIVE PAINT.**

To`lqinov Muhammad Ali Erkinjon Og`li
Namangan institute of engineering technology
Assistant of the Department of Energy

Tel: (+99899) 086-76-74. Email: Muhammadali.tolqinov.91@mail.ru

Annotation. This article examines the optical quantities of solar energy and light, as well as the influence of such quantities as illumination, luminous flux on the efficiency of highly sensitive solar photovoltaic cells based on dyes and their photocurrent.



VIKTORIAN DAVRIDA GENDER ALOQALARI MUAMMOSI (SHARLOTTA BRONTENING "JEYN EYR" ASARI MISOLIDA)

Rashidova Feruza Rasulovna
Namangan Davlat Universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola maqsadi Sh.Bronte tomonidan yozilgan "Jeyn Eyr" romani qahramonlari o'zaro aloqalarining o'ziga xos xususiyatlarini gender nuqtai nazaridan kurib chiqishdan iborat.

Tayanch so'zlar: Viktorian davr, gender aloqalar, opa-singil Brontelar, Jeyn Eyr

THE PROBLEM OF GENDER RELATIONS IN THE VICTORIAN ERA (ON THE EXAMPLE OF "JANE EYRE" BY CHARLOTTE BRONTE)

Rashidova Feruza Rasulovna
A Teacher, Department of English Language and Literature
Namangan State University

Annotation. The purpose of the article is to examine the specifics of the relationship between the protagonists of the novel "Jane Eyre", written by S. Bronte, from a gender perspective.

Key words: Victorian period, gender relations, sisters Bronte, Jane Eyre

ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ВИКТОРИАНСКУЮ ЭПОХУ (НА ПРИМЕРЕ «ДЖЕЙН ЭЙР» ШАРЛОТТЫ БРОНТЕ)

Рашидова Феруза Расуловна
Преподаватель кафедры Английского языка и литературы
Наманганский Государственный Университет

Аннотация. Цель статьи - изучить специфику взаимоотношений главных героев романа Ш. Бронте «Джейн Эйр» с гендерной точки зрения.

Ключевые слова: викторианский период, гендерные отношения, сестры Бронте, Джейн Эйр.

Bundan 200 yil oldin ham odamlar ayol kishi universitetlarda o'qishi, ilm o'rganishi, jamoat oldida nutq so'zlashlari va ilgari faqat erkaklar uchun mavjud bo'lgan sohalarda ishlash huquqiga ega bo'lishini tasavvur qila olmas edilar. Hozirda bizga o'sha paytdagi ayollar uchun qanday cheklovlar mavjud bo'lganligini tushunish qiyin. Ushbu roman yetim Jeyn Eyr hayotining fojiasi timsolida Viktorian davri jamiyatining hayotini yorqin aks ettiradi. Uning hayotidagi voqealıklar o'sha davr axloqining deyarli barcha jihatlari va xususiyatlarini, shu jumladan, ayollarning jamiyatdagi mavqeini qamrab oladi. Viktorian davridagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar romanni yozilishda asosiy rol o'ynadi va asarda ayolning o'mi aniq ko'rsatib berildi.

Viktorian davr – bu 1837 yildan 1901 yilgacha qirolicha Viktoriya Britaniyani boshqargan davrdir. O'sha paytda mamlakat asta-sekin jahon sanoat ishlab chiqarishidagi yetakchiligini yo'qotib bordi. Biroq, Britaniya jahon mustamlaka Imperiyasi sifatida o'z mavqeini mustahkamladi.



Madaniy sohada bu davr, xususan, Viktorian axloq deb nomlanuvchi o'rta va yuqori sinflar hayotini qat'iy tartibga soluvchi qadriyatlar va me'yorlar to'plamining shakllanishi bilan belgilandi.

Sharlotta Bronte - ingliz yozuvchisi va shoiri, yozuvchi bo'lgan uchta opa-singillarning to'ng'ichi. U 1816 yilda Yorkshir grafligining Tornton shaharchasida tug'ilgan. Sharlottaning otasi Irlandiyalik ingliz ruhoniysi edi.

1821 yilda Sharlottaning onasi saraton kasalligidan vafot etganidan so'ng, uning otasi bolalar tarbiyasiga vaqt ajrata olmadi va 1824 yil avgustda u Sharlotta va uning ikki singlisini Kovan-Bridj qishlog'iga, «Clergy Daughters» diniy maktabga yubordi.

Bu joy "Jeyn Eyr" romanidagi Lovud maktabining prototipiga aylandi.

- Menga kirish eshigi ustidagi "Lovud rahm-shafqat uyi" yozuvi nimani anglatishini tushuntirib bera olasizmi?

- Bu sen o'qiydigan maktab.

- Nega u "rahm-shavqat uyi" deb nomlanadi? Boshqa maktablardan farqi bormi?

- Bu yetim bolalar uchun boshpanaga o'xshagan joy: sen va men, qolgan barcha qizlar bu yerda bizga ravo ko'rilgan rahm-shafqat tufayli yashayapmiz. [1, 27-28 bet].

So'ngra Bronte 1831-1832 yillarda Mirfildda o'qishni davom ettirdi va keyinchalik shu yerda o'qituvchi bo'lib qoldi. 1839 yilda Sharlotta Yorkshirda enaga sifatida ishladi, uning o'qituvchilik va enaga bo'lib ishlash tajribasi "Jeyn Eyr" romanida aks etdi. 1843-1844 yillar oralig'ida esa u Belgiyaning Bryussel shahridagi til maktabida taqsim oldi.

1846 yil may oyida Sharlotta va uning singillari Emili va Enn mustaqil ravishda Karrer Bell, Ellis Bell va Ekton Bell taxalluslari ostida she'rlar to'plamini nashr etishdi. Erkaklar taxalluslarini ishlatishdan maqsad o'zlarini e'lon qilishni istamaslik edi, chunki ularning yozish uslubi va fikrlash shakli o'sha davr ayollari uchun nomaqbul hisoblangan.

Butun hayoti davomida Sharlotta Bronte "isyon va inqilob"ni emas, aksincha, bag'rikenglikni targ'ib qilgan va bunga amal qilgan. U yuqori axloqiy me'yorlarga ega edi. Garchi Sharlotta omma oldida uyatchan bo'lgan bo'lsa-da, u har doim o'z e'tiqodini himoya qilishga tayyor edi. Bu xususiyatlarning barchasi "Jeyn Eyr" asarining asosiy qahramoni obrazida namoyon bo'ladi.

Viktorian davri o'zining yuqori me'yorlari va ushbu jamiyat mezonlariga muvofiq kelishlik va to'g'ri bo'lishlik zarurligi bilan mashhur edi. Jeyn Eyr ushbu standartlarga mos kelmasdi. U atrofidagi odamlar tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan yo'ldan borishga rozimas edi. [2, 35-39 bet]

Bronte o'sha zamon me'yorlariga juda salbiy munosabatda bo'lgan va bu uning romani qahramonining iqtiboslarida yorqin aks etgan.

"Xotirjamlik ayollarga xosdir, ammo ayollar erkaklar bilan bir xil xissiyotlarga ega; ular o'zlarining qobiliyatlarini namoyish etish va o'zining faoliyat sohasini izlashda erkaklar kabi bir xil ehtiyojga egalar; urf-odatlarining qattiq bosimi ostida, inert muhitda yashashga majbur bo'lib, erkaklar qanday azob chekishsa, ular ham xuddi shunday azob chekisha di. Va agar kuchli jins vakillari ayollarning ishi faqat pudinglar pishirish va paypoq to'qish, pianino chalish va sumkachalar tikishdir deb da'vo qilsa bu juda tor doirada fikrlashdir." [1, 64 bet].

Viktorian davrda erkaklar va ayollar o'zaro munosabatlarini o'sha paytdagi jamiyat talablari va qonunlariga asoslanib tashkil qilishgan. Insonning "istalmagan" fazilatlarini e'tiborsiz qoldirilgan va "mos kelmaydigan" deb rad etilgan. Ushbu davrdagi xulq-atvor gender stereotiplari bilan juda qat'iy tartibga solingan. [2, 24-28 bet].



Sharlottaning inqilobiy tafakkuri uning romani satrlarida namoyon bo'ladi:

“Janob, siz mendan katta bo'lganingiz uchun yoki mendan farqli o'laroq dunyoni ko'rganingiz uchun menga buyruq berishga haqlisiz deb xisoblamayman. Sizning ustunligingiz vaqtingiz va tajribangizni qay darajada unumli foydalanganingizga qarab belgilanadi.” [1, 136 bet].

Viktorian davrida ayollar qat'iy turmush tarziga ega edilar. Ayollarning asosiy maqsadi turmush qurish va erlariga g'amxo'rlik va itoatkorlik bilan hamrohlik qilish, shuningdek ularning manfaatlari yo'lida harakat qilish edi. Ammo ular soxta hayot kechirardilar va faqat boshqalarning Viktorian jamiyatining talablarini qondiradigan e'tiqodiga ergashardilar. Ideal ayol - begunoh va pok farishta timsoli bulgan. Ayollardan ularning xohish-istaklarini inobatga olmagan xolda ushbu farishtasimon ko'rinishni saqlab qolishlari va nafis hayotni kutilar edi.

Jeyn ushbu gender rollarning aksariyati bilan rozi emas va jamiyat kutganchalik emas balki o'zligi qanday bo'lsa shundayligicha qolishi kerak deb xisoblaydi [4, 1-4 bet]. U Viktorian standartlarining butunlay teskarisidir; romanda uni ko'pincha hamma vaqt biron narsani o'rganishga, izlanishga, erkin bo'lishga, o'sha davr ayoli dunyosini cheklovchi "devorlari" dan tashqariga chiqishga intiladigan qiziquvchan qush bilan qiyoslashadi.

“Bir necha yillardan beri mening dunyoim Lovud devorlari bilan cheklangan: men uning qoidalari va urf-odatlaridan boshqa hech narsani bilmasdim. Endi esa men dunyoning ulkanligini va xavflar orasida hayot haqiqatini qidirish uchun uning bepoyon kengliklariga chiqishga jur'at etganlar oldida umidlar, qo'rquvlar, quvonch va tashvishlar uchun keng maydon ochilishini esladim.” [1, 48 bet].

Sharlotta Bronte turli xil personajlardan foydalanadi va ularga aql va ishtiyoq kabi sifatlarni beradi, shu bilan ular o'rtasida ziddiyatni keltirib chiqaradi. Muallif o'rganilayotgan muammoni aks ettirish uchun ularni qanday ishlatishini ko'rish uchun asosiy belgilar obrazlarini ko'rib chiqing.

Bronte maqolada o'rganilayotgan muammoni qay tarzda aks ettirgani asarining asosiy qahramonlarning obrazlari misolida ko'rib chiqamiz.

Jeyn Eyr - romanning bosh qahramoni. Tashqi ko'rinishidan sodda va ko'rimsiz Jeyn o'sha davr ayollaridan aql-zakovati va mustaqil bo'lishga bo'lgan ishtiyoqi bilan ajralib turadi. U ayollarga nisbatan ishlatilgan zulm, tengsizlik va xayotiy qiyinchiliklarga qarshi turishga majbur bo'lgan halol yosh qiz. Butun roman davomida u doimo uning o'z hayotiy pozitsiyasini o'zgartirmoqchi bo'lgan odamlar bilan duch kelishiga qaramay, Jeyn doimo o'zining qat'iy ishonchlari va tenglik, inson qadr-qimmatini va adolat tamoyillariga amal qiladi. U gender va ijtimoiy tenglikka bo'lgan kuchli ishonchi va e'tiqodi bilan Viktorian davr ayollariga nisbatan bo'lgan xurofotga qarshi chiqadi.

Edvard Rochester - Jeynning ish beruvchisi va Tornfildning egasi - romanda intriga uyg'otadigan noxush sirga ega badavlat, ehtirosli odam. Rochester Jeyn bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish uchun ijtimoiy tabaqa fikri, odob-axloq va o'rnatilgan tartiblardan chetga chiqishga tayyor.

Sent-Jon Rivers - Jeyn Tornfilddan qochib ketganidan so'ng unga boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minlagan odam. Morton rohibi bo'lgan Sent-Jon sovuqqon, o'zini tutib turadigan va ko'pincha boshqalar bilan munosabatlarda o'zini boshqara oladigan inson. U his-tuyg'ulardan butunlay voz kechib qat'iy ambitsiyalarga sodiqdir.



Berta Meyson - Rochesterning rafiqasi, bir vaqtlar chiroyli va boy bo'lgan, keyinchalik aqldan ozgan. U Tornfildning uchinchi qavatidagi maxfiy xonada ustidan qulflangan holda yashaydi.

Xelen Byorns - bu Jeyn Eyrning mehr-shavqat uyidagi eng yaqin dugonasi bo'lgan qiz. Xelen sabrli, itoatkor va ilohiy sevgiga to'la. U ushbu muhim fazilatlarini Jeynga o'tkazadi. Xelen sil kasalligidan vafot etayotganda, Jeynga qo'rqqanligini va yaxshi dunyoga ketayotganligini aytadi.

Rid xonim - Jeyn Eyrning xolasi, Jeynning amakisi janob Ridning bevasi. Janob Rid Jeynning onasining ukasi bo'lgan va asar voqealigi boshlanishidan to'qqiz yil oldin vafot yetgan. Rid xonim uzining fikriga ko'ra isyonkor bo'lgan Jeynni doimiy ravishda kamsitadi va jazolaydi, shu bilan birga o'z farzandlarining kamchiliklariga ye'tibor bermaydi. U Jeynni maktab-internatga yuboradi.

Shuni ta'kidlasa bo'ladiki, asarning ushbu bir-biriga umuman o'xshamaydigan barcha qahramonlari markaziy qahramon - Jeyn Eyrning aksidir.

Shunday qilib, "Jeyn Eyr" ning qahramonlari Brontening "asir" lariga o'xshaydi. Ulardan ba'zilari, masalan, yehtirosli Berta yoki hissiyotlarni namoyish yetmaydigan Sent-Jon Rivers, uning fe'l-atvori, hissiy va mantiqiy tabiatini aks yettiradi. Broklexurst va Jon Rid kabi boshqa personajlarni ko'proq qoshimcha dekoratsiyalar sifatida ko'rsa bo'ladi.

Sharlotta Jeynni shu qadar yaxshi va yaqindan biladiki, xuddi Jeyn uning xayoliy dunyosidagi Sharlottaning prototipidek tuyuladi.

Ushbu jihatlar orqali biz Jeyn ichida hissiy va mantiqiy komponentlar o'rtasida taranglikning rivojlanishini ko'ramiz va bu taranglik kitob voqealigida aks etadi.

Agar asarga Bronte shaxsiy ruhiyatining aksi sifatida qaralsa, unda tasvirlangan turli voqealar manbai Brontening hayoti bo'lishi kerak. Shunday qilib, u nafaqat o'zining shaxsiy hikoyasida bosh rol ni o'ynaydi, balki hal qiluvchi daqiqalarda Jeyn nomidan qahramonlarni va ularning ma'naviy kuchlarini qo'llab-quvvatlab turadi.

"Jeyn Eyr asarini Sharlotta Brontening xarakterining ifodasi sifatida ko'rish mumkin. Asar davomida Sent-Jon Rivers tomonidan qo'llab-quvvatlangan aql kuchlari va Berta boshchiligidagi ehtiros kuchlari o'rtasida ziddiyat kuchayib boradi. Ushbu keskinlik Jeynga va ehtimol, Sharlotta qalbiga kirib boradi. Bronte romanni ushbu ziddiyatni barcha personajlari o'rtasida paydo qilish va uni o'quvchilariga yetkazish uchun ishlatadi deb taxmin qilish mumkin. Berta va Seynt Jon Jeyn hayotining turli yo'llarida yashiringan turli xavflar ramzidir. Sharlotta o'quvchiga hayotdagi asosiy narsa bu muvozanat ekanligini yetkazishga harakat qiladi.

19-asrda Angliyada odamning jinsi o'zini tutishi va o'ziga xosligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan, ayollar o'zlarining jamiyatdagi mavqei, aqliy qobiliyatlari va tanlash huquqiga nisbatan "kamsituvchi" qarashlarga chidashga majbur bo'lishgan. Jeyn mustaqil bo'lishi va shaxs sifatida tan olinishi uchun qiyin jang olib bormoqda. U ayollarni hurmat qilmaydigan va ularni teng deb hisoblamaydigan ko'plab erkaklarga duch keladi. Janob Rochester va Sent-Jon ayollarni boshqarishga urinishadi. Bronte romandagi nikohdan erkak va ayol o'rtasidagi hokimiyat uchun kurashni tasvirlash uchun foydalanadi. Berta Meyson aqldan ozganiga qaramay, turmush qurgan ayollarni qanday qilib bostirish mumkinligining provokatsion belgisidir. Jeyn o'zini shaxs sifatida namoyon etilishiga chek qo'yiladi deb xisoblaydigan turli nikoh takliflarni rad etadi, u munosabatlardagi tenglikka intiladi. O'z vaqtida "Jeyn Eyr" gender tenglik uchun kurashni tasvirlangani uchun provokatsion kitob deb hisoblangan.



“Jeyn Eyr” (1847) asari Sharlotta Bronte tomonidan Karrer Bell erkak taxallusi bilan nashr etilganida, u bir tomondan maqtovlar bilan, ikkinchi tomondan qattiq tanqid bilan kutib olindi. Konservativ Ledi Istleykning ta'kidlashicha, agar kitob ayol tomonidan yozilganda, "u allaqachon o'z jinsiga qarashli jamiyatini yo'qotgan bo'lar edi". Bunga qo'shimcha ravishda, ayollarga xoslikni yo'qligi, u chartist ishchilar sinfining qo'zg'oloni va o'sha paytda butun Yevropani qamrab olgan siyosiy inqiloblarning aksini ko'rdi. Ledi Istleyk nazarida Jeyn Eyrning ayollarning o'zini tutishi kerakligi haqidagi noan'anaviy qarashlari ijtimoiy tuzumni ag'darishni anglatardi. Sharlotta Brontening dastlabki asarlardagi ehtirosli gertsog Zamorna ishqida yonayotgan ayol qahramonlaridan farqli o'laroq, Jeyn tenglik va hurmatni talab qiladi.

Romanda Jeynning kuchli, o'zini o'zi ta'minlay oladigan figurasi va tushkunlikka tushgan Rochesterning birinchi rafiqasi Berta Meyson o'rtasida sezilarli farq o'rnatiladi. Ammo, ko'plab tanqidchilar aytganidek, qizil xonada qamalgan jaxldor qiz va yuqori qavatda zanjirband qilingan aqldan ozgan rafika o'rtasida ham o'xshashlik mavjud. E'tiborli jihati, Jeyn Bertani birinchi marta o'zining oynasida ko'rganda unga nisbatan Rochester singari hukm chiqarishdan bosh tortadi. Roman o'quvchilarni Rochesterning buzuqligini ochiq-oydin ta'rifi bilan hayratga soldi, ammo shuni ta'kidlash kerakki, roman Jeynni kuchli istaklarga ega bo'lgan qahramon ayol sifatida tasvirlaydi. Jeyn Sent-Jon Riversga qarab yurganida, agar ular turmush qurishsa, u barcha "oilaviy hayot qoidalari"ga amal qilishidan qo'rqadi. Jeyn bu xolatni butun hayoti davomida uni sukutda azoblantiradi deb hisoblaydi.

Yonayotgan Tornfild roman davomida aks etgan ehtiros va olov tasvirini ramziy ma'noda anglatadi. Bronte Jeyn va Berta o'rtasida aniq qarama-qarshilikni o'rnatadi, ammo u ayollikning ikkita ehtirosli shakli o'rtasida tub o'xshashlik mavjudligini ta'kidlaydi.

Viktorian davr xonimining maqsadi - oilaviy o'choqni saqlash, bolalarni tarbiyalash, uyni boshqarish; ayol eridan, otasidan, akasidan hatto uzoq erkak qarindoshlaridan alohida bo'lmaganligidir. Biror bir sababga ko'ra turmush qurmaganlar o'zlarini past darajadagi ayollar deb hisoblashgan va jamiyatda jiddiy qabul qilinmagan.[3, 75 bet]

Viktorian davri ayol qiyofasi adabiyotda ko'pincha "uy farishtasi" bilan taqqoslanadi. Sharlotta Bronte Jeynni ushbu obrazning to'liq qarama-qarshisi sifatida ko'rsatadi. O'ziga xos xarakterli qiz hayotda o'z yo'lini izlaydi, jamiyat bosimiga qaramay jon berib kurashadi, yuragi va qalbiga ergashib, unga ta'sir o'tkazayotgan muhit qoida va talablarni yengish uchun qo'lidan kelganicha harakat qiladi.

Ushbu romandan biz sevgi va mustaqillik, vijdon va ehtiros o'rtasidagi ziddiyat, shuningdek, yosh qizning qadr-qimmatini uchun olib borgan kurashi haqida bilib olamiz. Bu mavzularning barchasi 19-asrdagi Viktorian Angliya patriarxal jamiyati uchun muhim bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bronte Sh., Jeyn Eyr // M.: AST, 2015. - 448 bet
2. Dittrich T., Viktorian Angliyaning kunlik xayoti // M.: Molodaya Gvardiya, 2007. - 382 bet
3. Kouti K., Viktorian Angliya ayollari // M.: Algoritm, 2017. - 320 bet



57	Okkazionalizmlarning badiiy-estetik vazifalari Abdurahmanova M.T., Mamajonova D.A.	274
58	Viktorian davrida gender aloqalari Muammosi (Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" asari misolida) Rashidova F.R.	278
59	O`zbek tili toponimiyasida antropotoponimik transonimizatsiya Sativoldiyeva D.S.	283
60	Tarjimada badiiy san`atlarni qayta yaratish masalalariga doir Sidiqov Q.A.	287
61	Yozma adabiyot va folklor munosabatlari. « Qutadg`u- bilig » asarda folklorning tutgan o`rni Mohira T.I.	292
62	Madaniy nutqda propozitiv nominatsiya va denotat tuzulishi Usmonova X.Sh.	296
63	O`zbek xalq maqollarida nonning ulug`lanishi Erkinova F.M.	301
64	Абдулла Қодирийнинг Ўткан кунлар романида ишлатилган сўзларнинг морфологик таснифи ва тавсифи. Абдураззоқов. Э. F.	306
65	XIX асрнинг охири - XX аср бошлари ўзбек шеъриятида халқчиллик ва миллийлик тасвири Барзиев О.Х.	314
66	Zamonaviy ta`lim usullari nazariyasiga turli yondishalar Zakirov M.N.	321
67	Китобот санъатини ўргатишда фанлараро интеграциядан фойдаланиш Абдуллаев К.А.	325
68	Кўнгил ва назар поклиги талқини Рузибоев Т.Х.	332
69	Чустий лирикасида маънавий санъатлар Отаханова М.М.	336
70	Yozuvchi ijodining o`ziga xosligi Hamidova M.O.	343
71	Наср ва назм уйғунлиги Санобар А., Ғойиббоева Р.А.	347
72	Усмон Азим шеъриятида дунё ва инсон муносабатлари ифодаси Тажибаева Д.Э.	351
73	Improving students' activity through interactive games Otaxanova D.M.	356
74	Немис адиби М.Правдин ижодида Бобур Мирзо талқини. Турсунов А.	360
75	Синфдан ташқари тўғарақларда Муҳаммад Юсуф ижодидаги ўзбек фольклор мотивларини ўргатиш Сайдахмедова Н.С.	363
76	Залогии глаголов в сравниваемых языках (русский и узбекский язык) Сагтарова Ф.У., Бекпудатова О.М.	368